




**2021- yil yanvar-may oylarida
Toshkent viloyatida xizmatlar
sohasining rivojlanishi**

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 665,4** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 838,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,7** %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2021- yil yanvar-may oylarida)

7 665,4 mlrd.
so'm

118,7 %

1 838,2
mlrd. so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi


2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar - iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



- 2020- y.

- 2021- y.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning may oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **20,1** mlrd. so'mga kamaydi va **1 547,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **114,2** mlrd. so'mga kamaygan va **1 246,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning aprel oyiga nisbatan joriy yilning may oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **18,1** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning aprel oyiga nisbatan 2020- yilning may oyida xizmatlar hajmi **588,4** mlrd. so'mga o'sgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar - jami	7 665,4	118,7
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	234,2	136,4
Moliyaviy xizmatlar	1 051,6	111,4
Transport xizmatlari	1 747,1	123,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 628,5	121,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	272,2	105,3
Savdo xizmatlari	2 598,9	113,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	251,5	133,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	263,5	116,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	158,4	141,3
Ijara xizmatlari	235,3	134,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	156,8	132,2
Shaxsiy xizmatlar	213,5	131,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	280,1	121,9
Boshqa xizmatlar	202,3	113,4

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **33,9** %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **2,0** %ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-may oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **34,7** %ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,7** %.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-may oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**41,3** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**36,4** %), ijara xizmatlari (**34,6** %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**33,3** %), kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**32,2** %), shaxsiy xizmatlar (**31,6** %), transport xizmatlari (**23,9** %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**21,9** %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**5,3** %) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, %da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **133,6 %**.

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **21,3 %**.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **33,9** %ni tashkil etib, bu esa **2 598,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **2 022,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **34,7** %iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2021- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **65,2 %**ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-may oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **66,6 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-may oylarida)

2021- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 051,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **909,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **13,7** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **15,6** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **142,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **11,4** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ularning o'sish sur'ati **133,2** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,5 %**ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **5,2 %**ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-may oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **89,7 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **1,9 %**ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **8,4 %**.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar




Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(2021- yilning yanvar-may oylarida)

2021- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **234,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **136,4** %ni tashkil etgan.



Taqqoslash uchun:

2020- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turi hajmi **168,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **2,9** %iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **133,6** %ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **92,2** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.
yanvar-may



2021- y.
yanvar-may



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,0** %ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **263,5** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,4** %ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,5** %ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi **215,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **8,5** % darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **51,4** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-may



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-may

2021- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,0 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,3 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-may



2020- y.
Yanvar-may



2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2021- y.	2020- y.
Toshkent viloyati *)	7 665,4	118,7	95,9
<i>shaharlar :</i>			
Nurafshon	384,7	110,7	119,6
Olmaliq	522,7	120,7	88,8
Angren	476,8	114,0	89,6
Bekobod	346,8	119,3	87,1
Ohangaron	147,5	117,7	87,4
Chirchiq	692,8	120,2	95,6
Yangiyo'l	361,8	123,0	88,3
<i>tumanlar :</i>			
Oqqo'rg'on	188,7	117,8	86,4
Ohangaron	109,2	117,4	91,6
Bekobod	212,1	116,3	87,6
Bo'stonliq	456,0	118,5	96,9
Bo'ka	201,0	118,8	88,3
Quyi Chirchiq	142,8	117,9	88,8

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Zangiota	785,9	127,7	89,3
Yuqori Chirchiq	256,3	123,4	89,9
Qibray	772,3	111,9	101,6
Parkent	291,7	124,6	91,0
Piskent	113,7	120,6	87,8
O'rta Chirchiq	229,6	112,9	86,1
Chinoz	206,6	115,4	73,7
Yangiyo'l	369,0	118,6	86,8
Toshkent	397,4	121,3	93,4


2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-may oylarida)



2021- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **10,3** %ni (2020- yil yanvar-may oylarida – **9,5** %) Zangiota tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Ohangaron tumanida – **1,4** % (2020- yil yanvar-may oylarida – **1,4** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 571,4
ming so'm

Hajmning
o'sishi

679,8
ming so'mga

2021- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 571,4** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,3** %ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 977,6** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **94,5** %da qayd etildi.



117,3 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- iyun holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

30 216
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

4 637
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

118,1 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


62,0 %

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,0 %**, sanoat **18,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,7 %**ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **7,7 %**ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,0 %**ni, sanoat **19,0 %**ni, qurilish **7,9 %**ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,1 %**ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**45,3 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **12,0 %**ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,6 %**ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %**ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,6 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, %da



2021- yil yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **68,9** %ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, %da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **57,2** %ga to'g'ri keldi.

